



O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
(MINTAQAVIY) MARKAZI

# O'ZBEKİSTONDA DEMOKRATİK, FUQAROLIK JAMİYATI ASOSLARINING SHAKLLANISHI, AMALGA OSHIRILGAN SİYOSIY ISLOHOTLAR

MODULI BO'YICHA  
O'QUV- USLUBIY  
MAJMUA

2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI  
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati  
asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy  
islohotlar”**

**MODULI BO'YICHA**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023-yil 25-avgustdagি 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va  
dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi:** O‘zMU “O‘zbekistonning eng yangi tarixi”  
kafedrasи dotsenti R.X. Xomitov

**Taqrizchi:** O‘zbekiston milliy universiteti,  
t.f.d.,prof.,A.A.Yermetov

*O‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining qarori bilannashrga  
tavsiya qilingan (2024-yil 20-yanvardagi № 4/2 -sonli bayonnomasи)*

## **MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>5</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>23</b>
<b>IV. AMALIY MASHG`ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>51</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>61</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO`YXATI.....</b>	<b>66</b>

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, ta’lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida pedagoglarning raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish, masofiviy ta’lim texnologiyalari va raqamli ta’lim resurslari asosida ta’lim jarayonini loyihalash kabi o‘qitishning zamonaviy shakllarini qo’llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

**“O‘zbekistonda demoratik, fuqarolik jamiyatni asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar” moduli** professional ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish maqsadida yangi bilim va malakalarni

o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirish maqsadida tashkil qilinadi.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**“O’zbekistonda demoratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar”** modulining maqsadi: pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy- metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarini o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

**“O’zbekistonda demoratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar”** modulining vazifalari:

- Professional ta’limda “O’zbekistonda demoratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar” tashkil etish shakllarini o‘rgatish;
- Ma’ruza, seminar darslariga qo‘yiladigan talablarni ochib berish;
- Professional ta’limda o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish shakllarini o‘rgatish;
- Ma’ruza haqida va uning asosiy vazifalari, samaradorlik shartlarini izohlash;
- “O’zbekistonda demoratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar” ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va intyerfaol usullarni loyihalashtirishni o‘rgatish.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“O’zbekistonda demoratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga

## oshiriladigan masalalar doirasida **tinglovchilar**:

- “O’zbekistonda demoratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar” darslarida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishni tashkil etish asosidagi innovation ta’lim usullar: amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol darslar, mazkur darslarida interfaol usullardan foydalanish bo‘yicha o‘quv topshiriqlarini tayyorlash, zamonaviy fuqarolik jamiyati darsliklari: asosiy va qo‘srimcha komponentlarga oid **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi** lozim.
- Fuqarolik jamiyati fanidan yaratilgan darsliklar, ularning tuzilishi, mazmuni va tahlili, fuqarolik jamiyati darsligi bilim manbai va ta’lim vositasi sifatida mustaqil ta’limni tashkil etish, mustaqil ta’lim, uning didaktik maqsadi va turlari fuqarolik jamiyati ta’limida mustaqil ishlarning mazmuni, mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillariga oid **malakalarini egallashi** lozim.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

Fan mazmuni o‘quv rejadagi “O’zbekistonda demoratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar” o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda tinglovchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat jumladan</b>				<b>Ko‘chma dars</b>
		<b>Hammasi</b>	<b>Jami</b>	<b>Nazariy</b>	<b>Amaliy mashg‘ulot</b>	
1.	Milliy davlat boshqaruvi tizimi.Mustaqil O’zbekistonda hokimiyatlar bo’linish prinsipi	4	4	2		2
2.	O’zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar	6	6	2	2	2

3	O'zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish	6	6	2	2	2
4.	Inson haq huquqlarini ta'minlash va himoya qilish	4	4		2	2
5	O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va ahamiyati.	4	4	2		2
6	Oila instituti va uning davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi.	4	4		2	2
<b>Jami:</b>		<b>28</b>	<b>28</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>12</b>

## **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu. Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linish prinsipi**

1. O'zbekiston Respublikasida yangi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning konseptual zaminlarining asoslab berilishi.
2. Milliy davlat boshqaruvi tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linish prinsipi
3. Mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar tizimida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huquqiy maqomi va faoliyatini demokratlashtirish, uning mas'uliyati va mustaqilligini kuchaytirish
4. Davlat hokimiyati va boshqaruvini modernizatsiyalash jarayonlari. Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimiga innovatsion yondashuvlar.
5. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi ustuvor vazifalar.

### **2-mavzu. O'zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi — O'zbekiston parlamenti, oliy davlat vakillik, qonun chiqaruvchi organi

- 2.O'zbekistonda parlamentarizmning rivojlanish tarixi
3. O'zbekistonda xalqchil parlamentni shakllantirish islohotlari
4. Islohotlarning qonuniy asoslarini parlament yaratadi.

### **3-mavzu. O'zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish**

1. Fuqarolik jamiyatining shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institutlarning tutgan o'rni.
2. Nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar.
3. Fuqarolarning o'zini -o'zi boshqarish organlarining o'rni.
4. Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirilishi.

### **4-mavzu.O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va ahamiyati.**

1. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institutlarning tutgan o'rni.
2. Juhon partiyaviy tizimlari. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylikning rivojlanishi. Siyosiy partiylar huquqiy maqomi va vazifalari
3. Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Senat, Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari kengashlaridagi faoliyatini takomillashtirish.
4. O'zbekiston partiyaviy tizimi: holati, muammo va mulohazalar

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu. Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linish prinsipi.**

1. O'zbekiston Respublikasida yangi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning konseptual zaminlarining asoslab berilishi.
2. Milliy davlat boshqaruvi tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linish prinsipi
3. Mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish borasida

amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tizimida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huquqiy maqomi va faoliyatini demokratlashtirish, uning mas’uliyati va mustaqilligini kuchaytirish

4. Davlat hokimiysi va boshqaruvini modernizatsiyalash jarayonlari. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimiga innovatsion yondashuvlar.

## **2-mavzu. O‘zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish**

1. Fuqarolik jamiyatining shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institatlarning tutgan o‘rni.
2. Nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar.
3. Fuqarolarning o‘zini -o‘zi boshqarish organlarining o‘rni.
4. Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirilishi.
5. Mamlakatimizda *demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish*, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, xalq farovonligini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati
6. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhofamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi ustuvor vazifalar.

## **3-mavzu. Inson haq huquqlarini ta’minlash va himoya qilish**

1. Inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmi.
2. Inson huquqlarini himoya qilishning mintaqaviy mexanizmi
3. Inson huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmi

## **4-mavzu. Oila instituti va uning davlat tomonidan qo’llab quvvatlanishi.**

1. Oila ijtimoiy institut sifatida: turlari, funksiyalari.
2. Oila institutini muhofaza qilishning qonuniy asoslari.
3. Oila huquqining asosiy tamoyillari.

4. “Farovon oila – farovon mahalla – farovon jamiyat” g`oyasi.

### **O‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar**

Mazkur modul ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:


- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

### 1. “VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI (GO)

Ta'lism oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo'lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



Grafik organayzer ta'lism oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

### 2. “Keys-stadi” texnologiyasi

“Keys-stadi” (ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi ta'lism oluvchilarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish

bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

Bular quyidagilardir: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to‘plash, ularni o‘rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi ta’limiy aloqaning usul va vositalari, o‘quv natijalari.

### **3. “Konseptual jadval” GO**

Ta’lim oluvchilarni o‘rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashga o‘rgatadi. Undan foydalanishda ta’lim oluvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatları rivojlantiriladi. Mashg‘ulotlar chog‘ida GOdan quyidagicha foydalaniladi:

Ўқитувчи ечими топилиши лозим бўлган мавзу (масала)ни аниклайди

Талабалар мавзу ва ГОдан фойдаланиш коидаси билан таништирилади

Талабалар кичик групкаларга биринчилини билдиради

Групкалар ўзларига берилган топширикни бажаради

Групкалар ечимни синф (груп) жамоаси хукмига ҳавола этади

Групкаларниң ечимлари синф (груп) жамоасида мухокама килинади

### **4. “Klaster” GO**

“Klaster” (g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) grafik organayzeri puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, uni ta’lim oluvchilar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin. Klasterlar ilgarisurilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni

topish imkoniyatini yaratadi.

### **5. “Konferensiya” metodi**

Texnologiya ta’lim oluvchilarga ular tomonidan mavzu bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o‘z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta’minalashga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha muayyan masalalarni hal etish, ma’lum jarayon (voqelik, hodisa)ning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo‘llarini topish asosida ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilarga o‘zlarida ijobjiy fazilatlarni ko‘proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

### **6. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi**

Metod ta’lim oluvchilar tomonidan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llash ta’lim oluvchilardan o‘rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o‘zlashtirish, asosiy g‘oyalarni umumlashtirish, ma’lum tizimga solish layoqatiga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Metod ta’lim oluvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi. Uni ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo‘llash yanada samarali hisoblanadi.

Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, ta’lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ma’naviy-ma’rifiy ishning yo‘nalishi, mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.

### **7. “FSMU” metodi**

Grafik organayzer ta’lim oluvchilarda o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan

asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta’lim oluvchilarga quyidagi sxema bilan ishslash tavsiya etiladi:


№	Тушунчалар	(Φ)	(C)	(M)	(Y)
1.	Таълим методлари				
2.	Таълим воситалари				
3.	Таълимни ташхис қилиш				

### 8. “Qarorlar shajarasi” (“qaror qabul qilish”) strategiyasi

Strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarini har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta’limda strategiyani qo‘llash o‘rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Unga ko‘ra mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):



“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar.

“Aqliy hujum” metodining og‘zaki turidan foydalangan holda quyidagi savollar beriladi:

1. Ta’lim jarayonida qadriyatlar tizimining o‘rnini ko‘rsating?
2. O‘zbekistonda ta’limni tashkil etishining asosiy bosqichlarini ochib bering?
3. Ta’lim jarayonining ichki imkoniyatlari va muammolariining muhim jihatlarini ta’riflab bering?
4. Boloniya deklaratsiyasining asosiy yutuqlari va kamchiliklari?
5. Ta’limning insonparvarlashuvi va axborotlashuvida falsafaning rolini ochib bering?
6. Ta’limning qaysi shakllarini bilasiz?

“Aqliy hujum” metodining yozma turidan foydalangan holda quyidagi savollarga yozma to‘liqroq variantda javob yozishlari talab etiladi:

1. Ta’lim falsafasining mohiyati nimalardan iborat?
2. Dunyo ta’lim makonida gumanitar ta’limni tashkil etish imkoniyatlari?

<b>Aqliy hujum</b>	-(breynstorming – miya buroni), amaliy va ilmiy muammolarni yechishda jamoa bilan ma’lumot yig‘ish
<b>Usulni asosiy g‘oyasi</b>	-g‘oyalalar to‘plash, ularni baholash va tahlil kilish, ajratish. “Aqliy hujum”ni olib boruvchining xatti- xarakati uchun bu g‘oya asosiy ko‘rsatgich bo‘lib, ishtirokchilarni imkoniyat qadar ko‘p g‘oyalalar taklif kilishga undaydi.
<b>Qoidalari</b>	Imkonи boricha ko‘proq g‘oyalarni taklif etish (jamlash), ularni talqin qilish, muammolarni yechish va ularni doskaga yozib qo‘yish.

<b>Ta’lim beruvchi</b>	<p>Qatnashchilarni 3-4 guruxga bo‘ladi va xar biriga muammolar taklif etadi (<b>Ilova 1</b>)</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Ishtirokchilarni qo‘llab-qo‘vvatlaydi (imo-ishora, jilmayish, xa-yo‘q so‘zlar bilan);</li> <li>-yumshoq, ammo astoydil talabalarni boshkalarni tanqid kilishdan kaytarib turadi;</li> <li>-xar bir fikrni o‘zgartirmasdan doskaga yozdirib qo‘yadi;</li> <li>-talabalarni so‘rovga kirishib ketishiga yordam berish va psixologik tuskinlikni yukotish uchun, oldingi yoki shu darsdan kutilmagan, original savollar berib mashq o‘tkazadi (blis so‘rov) (<b>Ilova 2</b>).</li> </ul>
<b>Fidbeyk</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>-har bir g‘oyani muhokama qilish;</li> <li>-eng to‘g‘ri g‘oyalarni qo‘llab-kuvvatlash</li> </ul>

### 3. Aqliy hujumning maqsadi va qoidalari

#### Aqliy hujumni o‘tkazishdan maqsad:

- muammoni hal qilish uchun g‘oyalarni topish;
- g‘oyalarni ularning ahamiyatliligiga qarab tartiblash;
- faol fikrlash malakasini shakllantirish;
- kutilmagan g‘oyalarni paydo bo‘lish jarayonini namoyish qilish;
- topilgan g‘oyalardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

#### Aqliy hujum qoidalari:

- g‘oyalarni ilgari surilishi bosqichida tanqid taqiqlanadi;
- original hatto fantastik g‘oyalar rag‘batlantiriladi;
- barcha g‘oyalar yozib boriladi yoki qayd qilinadi;
- agar ma’qul topsa muallifning o‘zi ham yozib boradi;
- “aqliy hujum” metodida qatnashchilar bir-biri bilan yuridik va ma’muriy jihatdan bog‘liq bo‘lmasligi zarur;
- tahlilchilar guruhi nisbatan samarali g‘oyalarni tahlil qiladi, sintez qiladi, baholaydi va tanlaydi;
- ushbu tadbirni o‘tkazishda Keynsning “ iqtisodchilar adashsalar ham ularni g‘oyasi kelajak uchun xizmat qiladi” degan qoidasiga amal qilish.

#### Natija:

- talabalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga erishiladi;
- vaqt ajratiladi va qilinadi;
- har bir talaba faollikka intiladi;
- ularda erkin fikrlash layoqati shakllanadi.

“LOYIHA” metodi




“Loyiha” metodi - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda

belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lif oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Bu jarayonda ta'lif oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning echimini topishdan iborat. Ta'lif oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va u ta'lif oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak.

Loyiha o'rghanishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta'lif oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

Quyidagi chizmada "Loyiha" metodining bosqichlari keltirilgan.



### **"Loyiha" metodining bosqichlari**

#### **ILMIY MAQOLA LOYIHASINI TAYYORLASH**

*Ta'lif oluvchilarga modul mavzulari doirasida erkin mavzu tanlaydilar, ular mavzu hususiyatidan kelib chiqqan holda o'z ilmiy maqolalarini tayyorlaydilar (hajm 4-5 varaqgacha)*

**"Insert jadvali"**

Tinlovchilarda ma’ruzalar va mustaqil ta’lim jarayonida olgan bilimlari asosida nazariy ma’lumotlarni tizimlashtirishib uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad etish, qabul qilinayotgan ma’lumotlarning tushunarligini nazorat qilish avval egallagan bilimlarini yangisi bilan bog’lash qobiliyatlarini shakllantiradi. Tinglovchilar ushbu jadval asosida darsda olgan bilimlarini o‘z bilimlari bilan taqqoslaydi, mavzu bo‘yicha mustaqil ishlab, yangi ma’lumotlar oladi, ularni matnda qo‘yilgan belgilar asosida jadvalga kiritadi.

#### **Namuna:**

Insert jadvali

#### **“O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR”**

V	+	-	?

“V”- ..... haqidagi bilimlarimga javob beradi;

“+” ..... haqidagi bilimlarimga qarama-qarshi;

“-” ..... yangi ma’lumotlar

“?” ..... mavzuga oid tug‘ilgan savollar

#### “T-jadval” metodi

Jadval shaklida berilgan topshiriqni mohiyatiga ko‘ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshirish talab etiladi. Jadvalning o‘ng va chap tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlari bayon etiladi, masala echimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi.

#### **Namunalar:**


#### **Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari**


## «FSMU» metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uygaga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### Texnologiyani amalgalash tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna:** “Dinlarni o‘rganishda samarali uslublardan biri mintaqaviy yondashuv” fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

## **“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod qatnashchilarning yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash maqsadida qo‘llaniladi.

“Tushunchalar tahlili” metodini amalga oshirish tartibi:

- ✓ ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- ✓ o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual tartibda);
- ✓ o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- ✓ belgilangan vaqt yakuniga etgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- ✓ har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Mavzuga oid tushunchalar tahlili”

Tushuncha	Hal qiluvchi kuch	Samarasi nimada aks etadi	Yondashuvni ilgari surgan olimlar

**Izoh:** Bo‘sh ustunlarga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi.

Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida

tayyorlaydi;

- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilanishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilar</b>	<b>1-matn</b>	<b>2-matn</b>
“V” – <i>tanish ma’lumot.</i>		
“?” – <i>mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak</i>		
“+” <i>bu ma’lumot men uchun yangilik</i>		
“-” <i>bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?</i>		

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### **“Bumerang” texnologiyasi**

**Maqsadi:** o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalahtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

#### **Amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni 5 daqika davomida sinchiklab o‘rganish talab etiladi. .
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi guruh a’zolarini o‘qilgan ma’lumot hakqida fikr almashinish imkonyatini beradi. Bu vazifa uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.
3. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat boshqa kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarining xar biri

o‘qigan ma’lumot hakqida fikr almashinish imkonyatini beradi. Bu vazifa uchun 10daqiqa vaqt beriladi.

4. Barcha dastlab shakllangan guruxlarga ishtirokchilar qaytadi, va fikr almashiningan ma’lumot yuzasidan boshqa guruhlarga berish uchun savol

shakllantiradi.

5. Har bir guruxdan 1 kishi savol beradi, va to‘g‘ri javob uchun 1-3 gacha ball qo‘yiladi.

6. Trener-o‘qituvchi barcha guruhlar to‘plagan ballarni umumlashtirib, g‘olib guruhni e’lon qiladi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**“Bumerang” texnologiyasi asosida vazifa:** Olingan materialni mazmunini tushunib olishga xarakat kiling, so‘ng guruhda muxokama qiling.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1-mavzu. Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linish prinsipi.**

**Reja:**

1. O'zbekiston Respublikasida yangi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning konseptual zaminlarining asoslab berilishi.
2. Milliy davlat boshqaruvi tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linish prinsipi
3. Mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar tizimida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huquqiy maqomi va faoliyatini demokratlashtirish, uning mas'uliyati va mustaqilligini kuchaytirish
4. Davlat hokimiyati va boshqaruvini modernizatsiyalash jarayonlari. Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimiga innovatsion yondashuvlar.
5. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi ustuvor vazifalar.

Mustaqillik davri mobaynida O'zbekiston davlat tizimida muhim o'zgarishlar ro'y berdi va faol rivojlanishda davom etmoqda. Xususan, parlament va siyosiy partiyalarning rolini mustahkamlash, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, shuningdek, sud-huquq tizimini yanada isloh qilishni ta'minlaydigan 2017-2021 - yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakat strategiyasini qabul qilish bilan bog'liq o'zgarishlar ayniqsa sezilarli bo'ldi.Ushbu strategiyaning amalga oshirilishi so'nggi yillarda mamlakat hukumati tuzilmalarini tubdan modernizatsiya qilish imkonini berdi. Davlat hokimiyati tizimining gorizontal muvozanatini ta'minlashda sezilarli yutuqlarga erishildi: ijro hokimiyati va sud hokimiyatining yuqori tarkibini shakllantirishda yangi

vakolatlarga ega bo‘lgan Oliy Majlisning roli sezilarli darajada oshdi. Oliy sud organlarini optimallashtirish va ular ko‘rib chiqadigan masalalar turiga qarab ixtisoslashtirishga asoslangan hududiy sudlarning izchil tuzilmasini joriy etish orqali sud tizimining samaradorligi sezilarli darajada yaxshilandi. Tubdan ma’muriy islohot o‘tkazilib, davlat va xo‘jalik boshqaruvi tuzilmalari modernizatsiya qilindi va yangilandi.

Islohotlarning strategik maqsadi o‘z fuqarolarining demokratik tamoyillari va shaxsiy erkinliklarini, ularning kafolati va himoyasini ta’minlovchi demokratik davlat qurishdan iborat. So‘nggi yillarda xalq bilan muloqotni faollashtirish uchun elektron portal va ijtimoiy media-ilovalar ishga tushirilib, deputatlarga saylovchilar bilan doimiy muloqotni davom ettirish imkonini berayotgani bu borada salmoqli qadamlar qo‘ymoqda. Ushbu tizim saylovchi deputatning kundalik faoliyatini kuzatishi, qonun loyihalarini muhokama qilishi va ular haqida o‘z fikrini bildirishi uchun ishlashga mo‘ljallangan.

Ta’kidlash lozimki, Jahon bankining "Davlat boshqaruvi ko‘rsatkichi"da 2019 yilda O‘zbekistonning pozitsiyasi 5 ta ko‘rsatkich bo‘yicha yaxshilandi. Bunga olib borilgan islohotlar asos bo‘ldi, ularni hal etishga yordam berish uchun samarali muloqot va xalq muammolarini o‘rganish tizimi yaratilib, matbuot erkinligi va davlat organlarining xalqqa hisobdorligini ta’minlash borasida muhim qadamlar qo‘yildi.

Bugungi kunda ular Oliy Majlis Senati a’zolarining 25% ini, Qonunchilik palatasi deputatlarining 32% ini tashkil etadi. Yangi saylov deputatlari va senatorlarining aksariyati yangi sayylanadi. Hammasi bo‘lib parlament 4/5 yangi a’zodan iborat. O‘rtacha yoshga kelsak, ikkala palata ham o‘tgan saylovga nisbatan o‘rtacha uch yilga "o‘sdi": 46 va 57 yosh 2015 yil bilan taqqoslaganda 43 va 54 yosh. So‘nggi yillarda ijro etuvchi organlarda ayollar vakillik ko‘rsatkichlari ham 3,4% dan 16% gacha – deyarli 5 barobar oshdi.

Bugungi kunda ular Oliy Majlis Senati a’zolarining 25% ini, Qonunchilik palatasi deputatlarining 32% ini tashkil yetadi. Yangi chaqiriq deputatlari va senatorlarining aksariyati yangi sayylanadi. Hammasi bo‘lib parlament 4/5 yangi

a'zodan iborat. O'rtacha yoshga kelsak, ikkala palata ham oxirgi chaqiruvga nisbatan o'rtacha uch yilga "pishib" qoldi: 46 va 57 yil, 2015 da 43 va 54 bilan taqqoslaganda. 3,4% dan 16% gacha-so'nggi yillarda, ijro yetuvchi organlarda ayollar vakillik ham deyarli 5 barobar oshdi.

So'nggi yillarda O'zbekiston nufuzli xalqaro parlamentlararo tuzilmalarning faol va tashabbuskor ishtirokchisiga aylandi. Ular orasida Parlamentlararo Ittifoq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlamentlararo assambleyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Parlamentlararo assambleyasi bor. Bundan tashqari, mazkur tashkilotlarda Oliy Majlis deputatlari rahbarlik lavozimlariga saylandi.

O'zbekistonda davlat xizmatini tashkil etish masalasi mustaqillikka erishgandan buyon eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Uzoq vaqt davomida davlat xizmatchilarining tarkibi, lavozimlari va sinflari masalalari noaniq bo'lib qoldi. Qisman, normativ-huquqiy tartibga solishdagi bu bo'shliq Respublika davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish chog'ida chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan qoplandi.

Davlat xizmati tizimidagi mavjud vaziyatni o'nglashga qayta-qayta urinishlar bo'ldi. Dastlab ko'rileyotgan chora-tadbirlar, avvalo, davlat xizmatchilari sonining nazoratsiz o'shining oldini olishga qaratildi. 1996 va 2003 yillarda mamlakatning yuqori rahbariyati oliy va mintaqaviy ijroiya organlarida ikkita keng ko'lamli xodimlarni qisqartirish tashabbusi bilan chiqdi. Ushbu chora-tadbirlar mamlakat aholisiga nisbatan davlat xizmatchilari sonini 6 dan 1000 aholisiga nisbatiga erishish imkonini berdi.O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatini tartibga solishning ko'pgina muammolari uni shakllantirishning dastlabki bosqichida normativ-huquqiy hujjatlar tuzilishining turlichaligi bilan izohlandi.

Shu bilan birga, ushbu chora-tadbirlar fuqarolarni tanlash va davlat xizmatiga qabul qilishni normativ jihatdan tartibga solishning yetarli emasligi bilan bog'liq tizimli muammolarni hal qila olmadi. 2016 yilda davlat organlarida band bo'lgan fuqarolar uchun professional mezonlarni belgilashga urinish-O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to‘g“risida”gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror davlat xizmatchilarining barcha turdag'i davlat xizmati uchun umumiyligiga bo‘lgan rasmiy xulq-atvor tamoyillarini belgilab berdi. Nizomning 5-bandiga asosan Davlat xizmatchilari o‘z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishlari kerak:

qonuniylik;

fugorolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoiylik;

davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;

adolatlilik, halollik va xolislik;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik.

Shu bilan birga, Nizom matnida ilgari davlat xizmatchilari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilmagan manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi qo‘srimcha tarzda olib berilgan bo‘lsa-da, uning yo‘l qo‘yilmasligi ko‘plab davlat xizmati lavozimlari faoliyatini nazarda tutilgan.

Xizmatga qabul qilish, mansabni oshirish bo‘yicha malakaviy imtihonlarni o‘tkazish tartibi va davlat xizmatchilarining moddiy, tashkiliy, huquqiy va mehnat kafolatlari masalalari hal etilmay qoldi.

O‘zbekistonda davlat xizmatini isloq qilish yo‘lidagi eng muhim qadamlari 2017 yil 7 fevralda "Beshta harakat strategiyasi" va "O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohototlar tushunchasi" qabul qilinganidan so‘ng amalga oshirildi. Konsepsiyaning yo‘l xaritasi "Davlat xizmati to‘g“risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat xizmati lavozimlariga kadrlarni tanlash tizimini tartibga solishga qaratilgan bir qator byulletenlarni o‘z ichiga oladi. "Davlat xizmati to‘g“risida”gi qonun loyihasi yaqinda e’lon qilindi va jamoatchilik muhokamasiga qo‘yildi. Hozirgi kundagi ushbu muhim hujjat 8 ta qism va 78 ta moddani o‘z ichiga oladi.

Qonun ishlab chiquvchilar O‘zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti

e'lon qilingan paytdan e'tiboran tartibga solinmagan davlat xizmatining barcha masalalarini normativ tartibga solishni ta'minlash vazifasini o'z zimmalariga oldilar.

Hozirgi kunda davlat xizmati tizimini takomillashtirish ishlari davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi akademik hamjamiyati bu borada davlatga faol ko'maklashadi. Ushbu o'zaro hamkorlikning salmoqli natijalaridan biri "Taraqqiyat" istiqbolli rahbar kadrlarni tanlash bo'yicha respublika tanlovini o'tkazish bo'ldi.

Tanlov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi Akademiyasi va "Buyuk Kelajak" nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan tashkil etildi. Tanlov har 3 yilda o'tkazilishi rejallashtirilgan. Shartlarga ko'ra, tanlovda 30 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan, oliy ma'lumotli va tegishli sohada boshqaruv lavozimlarida kamida uch yillik tajribaga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etishlari mumkin. Tanlov g'oliblari tegishli yo'nalishlar bo'yicha davlat tashkilotlarida yuqori lavozimlarga tayinlanadi, tanlov finalchilari esa rahbar kadrlar zaxirasiga kiritiladi.

2019 yilda mamlakat rahbariyati kadrlar siyosatini takomillashtirish choralarini ko'rdi. 2019 yil 3 oktyabrdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni kuchga kirdi. Ushbu Farmonning asosiy natijasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etilib, unga bevosita hisobot berildi.

### **Agentlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- davlat fuqarolik xizmati transformatsiyasining g'oyaviy platformasini, uni rivojlantirish dasturlari va loyihalarini ishlab chiqish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmati sohasida yagona siyosatning amalga oshirilishini ta'minlash;
- davlat organlari va tashkilotlarining davlat kadrlar siyosati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish jarayonlari va istiqbollarini monitoring va tahlil qilish hamda ushbu sohadagi muammolar va tahdidlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- ochiqlik, professionallik va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan xodimlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlantirishning innovatsion usullarini joriy etish;
- Milliy kadrlar zaxirasini boshqarish, Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestrini yuritish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portalini tashkil etish va yuritish;
- davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholashning o‘lchanadigan indikatorlari (eng muhim ko‘rsatkichlari) tizimini joriy etish va ularning natijalarini tahlil qilish, jamoatchilik fikrini o‘rganish hamda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining ochiq reytingini shakllantirish;
- malakali va yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan xorijda yashayotgan vatandoshlar orasidan aniqlash va jalb etish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatiga iqtidorli yoshlar va xotin-qizlarni keng jalb etish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish;
- eng istiqbolli kadrlarni davlat fuqarolik xizmatiga ochiq mustaqil tanlov asosida qabul qilishni tashkillashtirish;
- davlat fuqarolik xizmatchilarida yuksak kasbiy axloq-odobni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqatsiz munosabatni shakllantirish;
- davlat fuqarolik xizmati sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ularni izchil takomillashtirib borish, davlat fuqarolik xizmatchilari shaxsiy ma’lumotlarining xavfsizligini ta’minlagan holda ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
- davlat fuqarolik xizmatchilarining ish beruvchilar bilan o‘zaro munosabatlarida ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ularning mehnat faoliyati va ijtimoiy himoyasi uchun munosib shart-sharoitlar yaratishga ko‘maklashish;

- davlat xizmatchilari va mutaxassislarni xorijdagi nufuzli ta’lim, ilmiy va boshqa muassasalarda ta’lim olishini tashkil etishga ko‘maklashish.

2021 yilning 1 yanvaridan davlat organlari va tashkilotlarida davlat xizmatiga qabul qilish ochiq mustaqil tanlov asosida amalga oshirilishi belgilangan ushbu Farmon O‘zbekiston Respublikasining davlat davlat xizmatini ko‘rsatuvchi barcha davlat organlari va tashkilotlariga tegishlidir.

Bu holatda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining regulyator sifatida roli juda muhim bo‘ladi. Farmonga ko‘ra, Davlat tashkilotlarining kadrlar bo‘limi rahbarlari Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va tegishli ravishda uning filiallari bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi. Bundan tashqari, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi davlat xizmatini tartibga solish bo‘yicha barcha normativ-huquqiy hujjatlarni, shu jumladan haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish masalalari bo‘yicha ekspertizadan o‘tkazadi.

Yangi Agentlik oldida qo‘yilgan yana bir muhim vazifa davlat xizmatchilarining xalqaro amaliyotlarini tashkil etish edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi qaroriga muvofiq, Argos tashqi ishlar vazirligi, investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi Akademiyasi bilan birqalikda davlat organlari va tashkilotlarining o‘rtta va quyi bo‘g‘inlarining eng istiqbolli 1000 nafardan kam bo‘lmagan ish stajiga bosqichma-bosqich ta’lim berish bo‘yicha besh yillik dastur ishlab chiqishni amalga oshiradi. Qarorga muvofiq, chet el stajiga yo‘naltiriladigan shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi elchisining yashash joyidagi ish haqi miqdorining 60 foizi miqdorida ish haqi to‘lanishi lozim.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xizmatchilari va mutaxassislarni xorijda tayyorlash hamda ularning salohiyatini yanada oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmonida jahonning 56 davlati, jumladan, Qozog‘iston va Rossiya Federatsiyasi kabi qo‘shni davlatlar, shuningdek, Yevropa, Osiyo va Amerikaning eng rivojlangan davlatlari xorijiy stajirovka joylari sifatida taklif etilgan.

Shubhasiz, O‘zbekiston Respublikasi davlat xizmati tizimi rivojlanish jarayonida. Ushbu jarayonni yakunlash uchun yagona tizim tuzish qonunlarini qabul qilish talab etiladi, biroq ularning mavjud emasligiga qaramasdan, mamlakat rahbariyati davlat xizmatining sifat darajasini oshirish uchun sa’y-harakatlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish borasida qator islohotlar amalga oshirildi. Ma’muriy islohotlar konsepsiysi ijrosi doirasida 12 ta yangi davlat organlari tashkil etildi, 20 ta vazirlik va idoralarning faoliyati tubdan o‘zgartirildi.

Keyingi uch yilda ijtimoiy-iqtisodiy sohaning o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha 30 dan ortiq konsepsiya va strategiyalar qabul qilindi.

Kelgusi besh yilga yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, sanoat tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yildi, yalpi ichki mahsulotni qariyb ikki barobarga oshirish – 58 milliard dollardan 100 milliard dollargacha va aholining hayot darajasini oshirish, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali davlat boshqaruvisiz amalga oshirish mumkin emas.

## **2-mavzu. O‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar.**

### **Reja:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi — O‘zbekistonda parlamenti, oliv davlat vakillik, qonun chiqaruvchi organi.
- 2.O‘zbekistonda parlamentarizmning rivojlanish tarixi.
3. O‘zbekistonda xalqchil parlamentni shakllantirish islohotlari.
- 4.Islohotlarning qonuniy asoslarini parlament yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillari davomida milliy umuminsoniy qadriyatlar va boy tarixiy davlatchilik tajribalari asosida o‘ziga xos rivojlanish

yo‘li tanlab olindi. Shu asosda davlat-huquqiy amaliyotida jahon davlatchiligining boy tajribasidan unumli foydalanilib hokimiyatning bo‘linishi prinsiplariga mos davlat organlari tizimi shakllantirildi.

Bizga ma’lumki, mamlakatimizda Asosiy Qonunimiz talablari asosida davlat hokimiyatining amalga oshirish tamoyillarida eng katta konstitutsiyaviy islohotlar 2002 yil 27 yanvarda bo‘lib o‘tgan referendum natijasida amalga oshirildi.

2000 yil 25 may kuni O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq, ikkinchi sessiyasida Konstitutsiyamizning 83-moddasida belgilangan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirib: "Bizning jamiyatimiz tez sur’atlar bilan o‘zgarayapti. Odamlar ma’naviy ulg‘ayishi yo‘lida ildam qadam tashlayapti. Bu uzoqni ko‘zlagan siyosatimiz, ezgu maqsad yo‘lidagi intilishlarimiz natijasidir. Shuni yaxshi anglab olishimiz zarurki, hayot o‘zgarishi bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va manaviy ongi ulg‘ayishi bilan, bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham, uning faoliyatida ham tegishli o‘zgarishlar bo‘lishi tabiiydir.

Shu holatlarni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o‘tish taklifini kiritmoqchiman ya’ni, biz 2004 yilda bo‘ladigan saylovlarda parlamentni ikki palatali qilib, tashkil etishimiz lozim. Bunda quyi palata – Oliy Majlis partiyalar vakillari va mustaqil deputatlardan saylanadi. Siyosiy partiyalar va aholi yig‘ilishlari unga o‘z vakillarini o‘tkazadi, ular parlamentda doimiy ravishda ishlaydi. Yuqori palata tarkibini viloyat, shahar va tumanlardan mahalliy kengashlarga saylangan deputatlarning vakillari tashkil etadi"- degan takliflari va Oliy Majlis palatalarining qay tartibda faoliyat yuritishi to‘g‘risidagi asoslari deputatlarning muhokamasiga kiritildi.

Shundan so‘ng bu taklif yuzasidan, deputatlarning fikr va mulohazalari o‘rganib chiqilib, 2001-yil 6-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq, yettinchi sessiyasida deputatlar bir ovozdan O‘zbekiston xalqining fikrini aniqlash maqsadida referendum o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qildi, O‘zbekiston xalqi, Oliy Majlis faoliyatini takomillashtirishni bir

ovozdan tasdiqladi. O‘zbekiston parlamentida boshlangan ushbu islohot uzoqni ko‘zlab amalga oshirilganligi keyingi yillarda o‘z tasdig‘ini topdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston demokratik yangilanishlar, jadal rivojlanish va keng ko‘lamli islohotlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Dastlab, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, undan so‘ng 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida milliy parlamentarizmni rivojlantirishning huquqiy asoslari mustahkamlandi. O‘tgan qisqa davrda parlamentning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni va ahamiyati tubdan o‘zgardi.

Ta’kidlash joiz, 2017 yildan yangi demokratik institut – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi amaliyotga joriy qilindi. Murojaatnoma parlamentning mamlakat hayotidagi rolini chinakamiga oshirdi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamohang tarzda parlament faoliyatida ham ochiqlik va shaffoflik bosh mezonga aylandi. Jumladan, media makonining talab va ehtiyojlariga mos tarzda Qonunchilik palatasi majlislari, parlament nazorati tadbirlari ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Bu esa xalqimiz, keng jamoatchilikning Qonunchilik palatasida qonun loyihibalarining muhokamalari va qabul qilish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “Elektron parlament” mexanizmlaridan samarali foydalанилиши natijasida, hatto pandemiya sharoitida ham milliy parlamentimiz bir kun ham o‘z ishini to‘xtatmadı. Barcha muhokamalar va ovoz berish jarayoni onlayn tarzda o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi. Parlamentning qonun ijodkorligi sohasidagi ishlari ham butunlay yangi yo‘nalishda tashkil etildi. Parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatining ilmiy va ekspert-tahliliy ta’minoti mustahkamlandi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzurida Parlament tadqiqotlari instituti tashkil etildi.

Ta'kidlash joizki, 2018 yilda qabul qilingan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiysi parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tardi. Jumladan, qonun loyihalarining xalqaro shartnomalarga, O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash bo'yicha tavsiyalarga mosligini o'rganish amaliyoti yo'lga qo'yildi. To'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan, ya'ni ijro etilishi uchun qonunosti hujjati ishlab chiqilishi talab etilmaydigan qonunlarni qabul qilishga e'tibor kuchaytirildi.

Muayyan sohaga taalluqli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan bir nechta qonun o'rniga, yagona kodeks qabul qilish amaliyoti qaror topdi. Masalan, saylovga oid 5 ta qonun o'rniga yagona Saylov kodeksi qabul qilindi. Xuddi shunday, yangi Mehnat kodeksi qabul qilindi.

Ilgari qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari parlamentga qonun loyihasini kiritish bilan kifoyalanib, uni deputatlar oldida himoya qilish masalasiga uncha e'tibor qilishmas edi. Natijada, boshqa subyektlar kiritgan qonun loyihasini parlamentda himoya qilish ham deputatlik korpusi zimmasiga yuklatilar edi. Bu esa loyihaning qizg'in muhokama qilinishida salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Endilikda esa qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilinayotganda qonunchilik tashabbusi huquqi subyektining o'zi yoki uning vakili ma'ruza bilan chiqishi belgilandi. Natijada qonun loyihasining muhokamasi tom ma'noda jonlandi.

O'tgan davrda davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq tizimi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratishga qaratilgan ilgari mavjud bo'lмаган 50 dan ziyod qonunlar qabul qilindi. Masalan, "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, qonunlarning asl mazmun-mohiyatini sodda va tushunarli tarzda aholiga yetkazish maqsadida o'zgartish va qo'shimchalar kiritish xususiyatidagi qonunlarning kirish qismida ularning mazmun-mohiyatini ochib beruvchi muqaddimalarni bayon etish amaliyoti joriy etildi. Bu esa o'zgartish va

qo'shimchalar kiritish ko'zda tutilgan qonunning fuqarolarga, qonunni qo'llovchilarga sodda va xalqchil tilda tushunish imkonini beryapti.

Milliy qonunchilikni tizimlashtirish va rivojlantirish maqsadida yangi tahrirdagi qonun o'rniغا yangi qonunni qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu qonunchilik bazasining tizimliligini va kompleksliligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Parlamentarizm tizimining salohiyatini oshirish sohasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar tufayli parlamentning nazorat qilish vakolatlari ham sezilarli darajada kengaytirildi.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasining Davlat dasturi ijrosi bo'yicha parlament oldida har chorakda hisobot berish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Parlament nazoratining ushbu yangi shakli Hukumatning xalq vakillari oldidagi mas'uliyatini oshirish, Davlat dasturlarida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirish hamda deputatlik korpusining islohotlar jarayonida faol ishtirokini ta'minlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

Hukumat a'zolarining deputatlar savollariga javoblarini eshitish – "hukumat soati" instituti amaliyotga samarali joriy etildi. Mazkur institut parlament nazorati faoliyatiga yangicha ruh olib kirdi. Bugungi kunda aholini tashvishga solib kelayotgan hayotiy dolzarb muammolarga aynan "hukumat soati" tadbirlarida yechim topilmoqda.

Ilk bor O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti qonun shaklida qabul qilindi. O'z navbatida, budget ijrosi ustidan nazorat ham endilikda vazirlik va sohalar kesimida manzilli olib borilmoqda.

Bugungi kunda nafaqat Hukumat faoliyatini nazorat qilish, balki, Hukumat a'zoligiga nomzodlarni Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqish va ma'qullash amaliyoti joriy etildi. Bu esa hukumat tarkibini shakllantirishda xalq vakillarining bevosita ishtirokini ta'minlamoqda hamda ularning fikri va ovozi asosida muayyan bir vazir yoki boshqa hukumat a'zosini lavozimga qo'yish amalga oshirilmoqda. Qolaversa, Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlisdag'i vakolatli vakili lavozimi joriy etildi.

O‘tgan davrda aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizm va samarali usullarini joriy etish deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Saylov okruglaridagi saylovchilar bilan hamkorlikning shakl va usullari o‘zgartirildi.

Xalq vakillari faoliyatida saylovchilar deputat oldiga emas, deputat o‘z saylovchilari huzuriga borishi shart, degan tamoyil ustuvorlik kasb etdi. Ilgari deputatlar o‘z saylovchilari bilan yilda 2-3 marta uchrashgan bo‘lsa, bugungi kunda deputatlar har oyning oxirgi haftasida saylov okruglarida bo‘lib, ularni qiynab kelayotgan muammolarni hal etish bilan shug‘ullanmoqda.

Qolaversa, deputatlar o‘z saylovchilari bilan Axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali muloqot olib bormoqdalar. Axborot maydonida deputatlar faoliyati sezilarli darajada faollashdi. Deputatlar “facebook” va “telegram” ijtimoiy tarmoklarida o‘z sahifalari va kanallarini ochib, aholi bilan qayta aloqani yo‘lga qo‘yganlar.

O‘tgan davrda deputatlar hududlarda odil sudlovni ta’minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish, shaxsiy tomorqalardan samarali foydalanish, “Temir daftar”ga kiritilgan aholini qo‘llab-quvvatlash, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” asosida ishsiz yoshlar hamda xotin-qizlar bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni atroflicha o‘rganib, sohada tegishli choralar ko‘rilishiga erishishdi.

So‘nggi yillarda parlamentda yoshlarning o‘mini kengaytirish masalasi ham alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, Qonunchilik palatasi deputatlarining 9 nafari yoki 6 foizi 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarni tashkil etadi.

Bugungi kunda palatada tashkil etilgan Yoshlar parlamenti a’zolari qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jalb qilish orqali ularning parlament hayotiga daxldorligini oshirishda faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston dunyodagi eng nufuzli xalqaro parlament tashkilotlari bo‘lgan Parlamentlararo Ittifoqda, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti Parlament Assambleyasida, Mustaqil davlatlar hamdo‘sstligi Parlamentlararo

Assambleyasida o‘zining a’zoligini tikladi. Bu esa, keng doiradagi masalalar bo‘yicha samarali hamkorlik borasida qo‘sishimcha imkoniyatlar eshigini ochdi.

O‘tgan davrda Oliy Majlisning xorijiy mamlakatlar parlamentlari bilan hamkorlik bo‘yicha qator parlamentlar hamkorlik guruhlari tashkil etildi. Jumladan, Qonunchilik palatasida 2015–2019 yillarda 28 ta parlamentlararo hamkorlik guruhi faoliyat olib borgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 50 dan oshdi.

O‘zbekistonning xalqaro shartnomalardagi majburiyatlari bajarilishi hamda xalqaro yo‘nalishda qabul qilingan “Yo‘l xaritalari” ijrosi ustidan parlament nazorati kuchaytirildi. Masalan, parlamentimiz BMTning barqaror rivojlanish maqsadlarini O‘zbekiston tomonidan bajarishga, mamlakatimizning xalqaro reytinglar va indekslardagi ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilashga doir rejalar ijrosiga ham faol hissa qo‘shmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar natijasi o‘laroq, parlamentning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni yanada oshdi.

Avvalambor, Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan Qonunchilik palatasi bilan Senatning birgalikdagi vakolatlari hamda har bir palataning alohida-alohida vakolatlari va mas’uliyat sohalari aniq belgilab berildi. Masalan, agar ilgarigi Konstitutsiya bo‘yicha Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 ta bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga asosan ularning soni 12 taga yetdi.

Xususan, Davlat budgeti ijrosini nazorat qilish, Hisob palatasining hisobotini ko‘rib chiqish kabi vakolatlar bevosita xalq tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylanadigan Qonunchilik palatasiga o‘tkazildi. Bu o‘zgartish quyi palataning vakillik tabiatiga mos keladi hamda uning faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Yana bir muhim masala. Ilg‘or xorijiy tajriba inobatga olinib, Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va ma’qullash vakolati Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatiga o‘tkazildi. Bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasiga taqdim qilishdan oldin Prezident tomonidan barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazish tartibi joriy etilmoqda.

Xuddi shunday, Senatning mutlaq vakolatlari ham amaldagi 14 tadan – 18 taga oshirilmoqda. Jumladan, hududiy manfaatlarni ifodalovchi organ sifatida Senatning mahalliy vakillik organlari faoliyatiga ko‘maklashish kabi muhim vakolati Bosh qomusimizda mustahkamlab qo‘yildi.

Shuningdek, davlat hokimiyyati tizimida o‘zaro tiyib turish va muvozanatni ta’minlash prinsipidan kelib chiqib, vazirliklar va boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyyat organlarini tuzish va tugatish to‘g‘risidagi farmonlarni tasdiqlash vakolatini ham Senatga o‘tkazish taklif etilmoqda.

Parlamentning nazorat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlarini lavozimga qo‘yish borasidagi funksiyalari kuchaytirildi hamda Prezidentning ayrim vakolatlari parlamentga o‘tkazildi.

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Bosh prokuror, Hisob palatasi rahbarligiga nomzodlar avval Senatda ko‘rib chiqilib, keyin Prezident tomonidan tayinlanishi, shuningdek Monopoliyaga qarshi organ va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbarlari Senat tomonidan saylanishi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash maqsadida Sudyalar oliv kengashining barcha a’zolarini Senat tomonidan saylash tizimi kiritildi.

Qonun Senat tomonidan oltmis kun ichida ko‘rib chiqilishi belgilandi. Agar Senat qonunni ma’qullash yoki rad etish to‘g‘risida oltmis kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi tomonidan qonun imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuborilishi nazarda tutilmoqda.

Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlari ham kuchaytirilib, parlament nazoratining muhim shakli bo‘lgan parlament tekshiruvi instituti Konstitutsiyada alohida mustahkamlab qo‘yildi.

Shuningdek, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yillik milliy ma’ruzani eshitish, davlat qarzining eng yuqori miqdorini belgilash, parlament tekshiruvini amalga oshirish kabi muhim vakolatlar palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiritildi.

Bu esa ikkala palataning mazkur yo‘nalishdagi samarali hamkorligini ta’minlagan holda, korrupsiya illatiga qarshi kurashish borasida ijobiy o‘zgarishlar uchun mustahkam zamin yaratadi, deb hisoblaymiz.

Ko‘plab olimlar ta’kidlaganidek, parlament davlat hokimiyatining boshqa institutlaridan farqli ravishda doimo “demokratiya nazariyasi va amaliyotining kesishuvi ro‘y beradigan nuqtada turadi” va xalq hokimiyatchiligining timsoli hisoblanadi.

Davlat hokimiyati tizimida parlamentning rolini kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar xalq vakillaridan yanada faol bo‘lishni talab etadi. Shu ma’noda, parlament islohotlarning tom ma’nodagi tashabbuskori va madadkori bo‘lish uchun bor salohiyatini ishga solgan holda, o‘z faoliyatini takomillashtirib boraveradi.

### **3-mavzu. O‘zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish.**

#### **Reja:**

1. Fuqarolik jamiyatining shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institutlarning tutgan o‘rni.
2. Nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar.
3. Fuqarolarning o‘zini -o‘zi boshqarish organlarining o‘rni.
4. Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirilishi.

Fuqarolik jamiyatining amalda yuzaga kelishiga Huquqlar haqidagi bill (Angliya, 1689 y.; AQSh, 1791 y.) yoki Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (Frantsiya, 1789 y.)ning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Fuqarolik jamiyati – o‘z shaxsi, ijodiy tashabbusini erkin namoyon etuvchi teng huquqli odamlar jamiyati, ortiqcha taqiqlar va keraksiz ma’muriy tartibga solishdan xoli

teng imkoniyatlar jamiyati sifatida shakllandi.XX asrda fuqarolik jamiyati g'oyasi yanada muhimroq ahamiyat kasb etdi. Bunga avvalo totalitar va avtoritar tuzumlarning paydo bo'lishi va ularga qarshi demokratiya uchun kurash olib borish zaruriyati sabab bo'ldi. Plyuralizm nazariyasi keng tarqaldi. Bu nazariyaga binoan, demokratik jamiyatning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat: - fuqarolar totuvligiga erishish yo'llarini izlash; - aholining turli guruhlari manfaatlarini hisobga olish; - qarama-qarshiliklarga barham berish va nizolarning oldini olish. Tabaqaviy imtiyozlarning tugatilishi va fuqarolik huquqlarining paydo bo'lishi fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omili hisoblanadi.

Shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy negizi bo'lib xizmat qiladi.Shunday qilib, huquqiy davlat va —fuqarolik jamiyati tushunchalari jamiyat hayotining turli tomonlarini aks ettiruvchi tushunchalardir. Ular guruhlar, individlar, jamiyatning umumiyligi ahamiyatga molik manfaatlari o'raladigan qobiq hisoblanadi va ularni ro'yobga chiqarish usullaridan tashkil topadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, fuqarolik jamiyatining davlatdan ajralishi aynan tabaqalar o'rtasidagi tengsizlikni tugatish va ijtimoiy munosabatlarni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida yuz bergen. Bu jarayonga butun aholi nomidan ish ko'ruvchi vakillik davlatining shakllanishi asos bo'lgan.

Yetuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik davlat qurish mumkin emas, chunki ongli erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdirlar. Shunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ va markazlashgan davlat xohish-irodasi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzulga qarshi ish ko'rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Huquqiy davlat – bu shunday bir davlat hokimiyatdirki, u huquq normalariga binoan, va ularning doirasida ish ko'radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur'at etmaydi, fuqarolar va ularning birlashmalarining uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e'tirof etadi.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, bozor iqtisodiyotiga asoslangan

erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish bosh strategik maqsad sifatida belgilandi. Shu kabi jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquq va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analar va ma'naviyatimizni qayta tiklashi, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlay olishi e'tirof etildi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri - bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'lganligi bois, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o'rnatishga, uning asosiy qoida va talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi huquqiy normalarining o'z ifodasini topishiga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining asosiy qoida va talablarini aks ettiruvchi printsipial ahamiyatga ega bo'lgan normalar sifatida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi (2-modda), xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai hisoblanishi (7-modda), O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printsipiga asoslanishi (11-modda), O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi (12-modda) kabilarda fuqarolik jamiyatining asosiy printsipial masalalari yuridik jihatdan mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Konstitutsiyamizda qayd etilgan asosiy printsiplar va normalar asosida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, saylov huquqi erkinligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tadrijiy islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslariini yaratish va rivojlantirish

bo'yiyaa amalga oshirilgan ishlarni Fuqarolik jamiyatni shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan uch bosqichga bo'lib tahlil qilish tavsiya etiladi. Birinchi bosqich o'z ichiga 1991-2000 yillarni qamrab oladi. Bu davrda, birinchi navbatda fuqarolik jamiyatining shakllanishining asoslari yaratildi Ikkinch bosqich (2000-2010 yillar) damamlakatni demoeratlashtirish va modernizatsiyalash bo'yicha faol jarayonlar davom ettirildi. 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mamlakatda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Kontseptsiyasi e'lon qilindi.

Bu Konsepsiya mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning ikkinchi bosqichiga yakun yasadi va yani – uchinchi bosqichni boshlab berdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarining mazmun moxiyatidan kelib chiqib fuqarolik jamiti tushunchasiga turli xil darajada tariflar berilmoqda.

Fuqarolik jamiyatni shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan fuqarolik jamiyatiga quyidagicha ta'rif berilgan: Fuqarolik jamiyat – bu qonun ustuvorligi qiladigan; inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalashni ta'minlanadigan, shaxsning rivojlanishi va o'zligini namoyon qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan; aholinig keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanidigan mustaqil qva barqaror institutlar amal qiladigan ijtimoiy makondir.

Yurtimizdagagi jamiyatshunos olimlar ham fuqarolik jamiyatini —..... bu - erkin, demokratik, huquqiy tsivilizatsiyalashgan jamiyat bo'lib, unda yakka hokimlik rejimiga, volyuntarizmga, sinfiy adovatga, totalitarizmga, odamlar ustidan zo'ravonlik qilishga o'rinn yo'q, Bunday jamiyatda faqat va faqat qonun, axloq, insonparvarlik,adolat ustuvorlik qiladi.

Bu jamiyatda ko'p ukladli raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti, tashshabbuskor tadbirkorlar iqtisodiy rivojlanishning asosini tashkil etadi, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlari muvozanatga keltirib turiladi yoki —Fuqarolar o'rtasidagi muaayyan kompromiss, davlat va nodavlat tashkilotlpr o'rtasida

konsensus madaniyati vudulga kelganda, shuningdek, dunyoqarashlar plyuralizm, davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro ta'sirga kirishishga layoqatli jamoatchilik institutlari vujudga kelganda shakllanishi mumkin deya tariflaydi.

Mustaqillik tufayli davlat va jamiyat boshqaruving haqiqiy demokratik tabiatni to'g'risida aniq tasavvur, fikr va mulohazalar paydo bo'lib, fuqarolar o'z erkinliklari, siyosiy huquqlarini bevosita yoki bilvosita amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu huquq O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning sub'ektiga aylanganligidan, fuqarolarning o'z taqdirini o'zi amalda belgilash shart-sharoitlarini ta'minlamoqda.

Natijada, demokratiya xalq hukumatga emas, aksincha hukumat xalqqa xizmat qilishi kerakligi to'g'risidagi tamoyilga asoslana boshladi. Demokratiya sharoitida xalq davlatning irodasiga qarab emas, aksincha, ongli, faol fuqarosi sifatida ishtirok etadi. Davlat va fuqaro o'rtasida shunday oqilona munosabat qaror topadiki, davlatning fuqaro ustidan hukmronligi, zo'ravonligi, "bo'ysundirish" kabi totalitar davlatga xos belgilari barham topadi.

Davlatning demokratik kuchi ham uning fuqaroga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Shunda xalqning davlatga nisbatan sadoqati yuqori bo'ladi. Xalqni itoatkorlik asosida tutib turish va siyosat olib borish, oxir oqibatda faqat demokratik jarayonlarga hamda xalqning jamiyat boshqaruvi jarayonlaridan, faol mehnat ruhiyatidan so'ndiribgina qolmasdan, davlatni tobora zaif bir holatga tushib borishga sabab bo'ladi. Bunday davlat, siyosiy rejimning dunyo hamjamiyati oldida ham nufuzi yuqori bo'lmaydi.

Fuqarolarga erkinlik, demokratiyani real ta'minlab bermagan davlat tabiatan ma'rifiy bo'la olmaydi. Demokratik jamiyatda esa fuqarolar o'z erkinligi va huquqlaridan to'la foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bular: a) avvalo, erkin mehnat faoliyatini tanlash va uni amalga oshirish; b) davlat hokimiyatidan va mustaqil bo'lgan turli institutlarda ishtirok etish; v) ijtimoiy hayot sohalarida erkin faoliyat ko'rsatish; g) jamiyat siyosiy-ijtimoiy, madaniy hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlardan xabardor bo'lish, turli fikr va qarashlarga o'z munosabatlarini bildirishda erkin bo'lish bilan birga, muayyan ma'suliyatini ham o'z zimmasiga

olish orqali amalga oshib boradi.

O'zbekiston mustaqillik tufayli, fuqarolarning so'z, majlislar va vijdon erkinligini ham yangicha asoslarga qo'ydi. Bu daxlsiz huquqlardan foydalanish imkoniyatlarini milliy qadriyatlar va an'analar, respublikaning milliy tarkibi xususiyatlari, polietnik davlat talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshira boshladi. Bu har bir insonga, 104 uning millati, dini, jinsi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, fuqaro sifatida ham huquqlarini teng amalga oshirish uchun demokratik asoslar yaratib berildi. Bu Respublikada yashayotgan har bir fuqaroning mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotida erkin faoliyatini amalda ta'minlab bermoqda.

Mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar natijasida fuqarolarning davlat hokimiyatida ishtiroki jarayon sifatida yangicha mazmun bilan boyib bormoqda. Bu jamiyatda vujudga kelgan xilma-xil demokratik institutlar bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan yondashganda, bugunga kelib, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy hayotida davlat hokimiyatidan fuqarolik institutlarining vazifalari kengayib borayotganligini kuzatamiz. Agar 1991 yilda respublikamizda 95 ta NNT qayd etilgan bo'lsa, 2000 yilga kelib ularning soni 2585 taga etdi. 2013 yilda esa 6 mingdan oshib ketdi. Bugungi kunda ularning soni 8250dan oshganini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishda qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishi. "Qonun ustuvorligi" tushunchasi. O'zbekistonda davlat xokimiyatining bo'linish tamoyili. Prezidentlik instituti. Qonun chiqaruvchi. Qonunchilik palatasi va Senat. Vazirlar Mahkamasi. Ijro etuvchi va sud hokimiyati. Sud mustaqilligi. Davlat organlarining vakolatlari. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi. Davlat hokimiyati organlari mustaqilligining amal qilishi va mas'uliyati. Konstitutsiya va qonunlardaadolat hamda inson manfaatlarining ustuvorligi.

Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, nodavlat tashkilotlar, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga amal qilishining umumiy tamoyil ekanligi. Konstitutsiyaga va demokratiyaga zid bo'lgan qonunlar va boshqa

normativ-huquqiy hujjatlarning bekor qilinishi lozimligi tamoyili. Qonun ustuvorligi tamoyilining O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati. O‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish.

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiliginin yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish zaruriyati. Qonun ustuvorligini ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqilishi. Fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg‘usining yanada ortishi.

Demokratik talab va standartlarga to‘la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasining yaratilishi. Bozor iqtisodiyoti asoslarining qonunchilik bazasini shakllantirilishi. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish; Sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish; Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlash; Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish; Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash.

Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish tushunchasi, ma’no-mazmuni. Hokimiyatlar bo‘linishi konstitutsiyaviy prinsipi. Hokimiyatlar o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish. Sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta’minlash. Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, ikki palatali milliy parlamentning vujudga kelishi. «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida», «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi va «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonunlarning mazmun-mohiyati. Ko‘ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi.

Davlat hokimiyatining uchta subekti, ya’ni davlat boshlig‘i – Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasidagi vakolatlarning mutanosib taqsimlanishining ta’minlashi. Saylovlarda yutib chiqqan siyosiy

partiyaning Bosh vazir nomzodining ko‘rsatishi va uning parlament tomonidan ko‘rib chiqilishi va tasdiqlanishi.

Siyosiy tizimni modernizatsiya qilishni takomillashtirish jarayoni. Davlat hokimiyyati va boshqaruvini demokratlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan konstitutsiyaviy o‘zgarishlar va uning ahamiyati. Davlat boshqaruvini takomillashtirishda eng avvalo davlat xizmatini isloh qilish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning o‘zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiylar, fuqarolik jamiyatni institutlarining rolini yanada kuchaytirish: Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish: Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish jarayoni. O‘zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi, demokratik asoslari va amaliyoti.

#### **4-mavzu. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va ahamiyati.**

##### **Reja:**

1. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institutlarning tutgan o‘rni.
2. Jahon partiyaviy tizimlari. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylikning rivojlanishi. Siyosiy partiylar huquqiy maqomi va vazifalari.
3. Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Senat, Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari kengashlaridagi faoliyatini takomillashtirish.
4. O‘zbekiston partiyaviy tizimi: holati, muammo va mulohazalar.

Ko‘ppartiyaviylik zamonaviy demokratik jamiyatlar siyosiy hayotini tashkil qilishning asosiy konstitusiyaviy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Aynan

ko'ppartiyaviylik tufayli demokratiyaning siyosiy plyuralizm, qonun ustuvorligi, imkoniyatlar tengligi kabi asoskor tamoyillarini o'zida mujassam etgan siyosiy partiylar va ularning vakillari o'rtasida doimiy muloqot ta'minlanadi.

Mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishda, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insonning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarishi uchun tegishli shart-sharoit yaratishda, odamlarning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etish, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini rivojlantirish va amalda namoyon qilishda, jamiyatimizda mavjud bo'lган turli manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini rivojlantirish va amalda namoyon qilishda, jamiyatimizda mavjud bo'lган turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirishda ko'ppartiyaviylik tizimi muhim rol o'ynaydi.

Ko'ppartiyaviylik tizimini yanada mustahkamlash va partiyalararo raqobatni rivojlantirish uchun partiya o'z elektoratiga ega bo'lmog'i, "davlat va jamiyat qurilishining asosiy masalalari, mamlakatda yuritilayotgan ichki va tashqi siyosat bo'yicha aniq-ravshan pozisiyasi bilan, saylovda mazkur partiya uchun ovoz beradigan odamlar manfaatlarini qat'iy himoya qilishga qodirligi bilan saylovchilar o'rtasida obro' qozonmog'i eng muhim shartlardan hisoblanadi.

Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotning aniq ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishda siyosiy partiylarning rolini keskin kuchaytirish, mamlakatimizni isloh etish va modernizasiya qilish bo'yicha strategik vazifalarni hal etishda ularning ishtirokini kengaytirish izchil amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlarning muhim omili hisoblanadi.

**"Partiya"** so'zi lotincha "part" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "ish", "qism" degan ma'nolarni anglatadi. Siyosiy partiya — aholining, sinfning, ijtimoiy qatlama yoki qatlamlarning bir qismi. Ilmiy nuqtai nazardan siyosiy partiylar uchun berilgan quyidagi ta'rifni asos sifatida qabul qilish mumkin: **siyosiy partiya** – fuqarolarning eng faol, mushtarak mafkura asosida bog'langan, davlat hokimiyatini qo'lga kiritish, uni saqlab qolish va amalga oshirishga intiluvchi

qismi, ixtiyoriy ittifoqi. Siyosiy partiyalar jamoat birlashmasi shaklida tashkil etiluvchi va faoliyat yurituvchi fuqarolik jamiyatining o'ziga xos instituti bo'lib, u muhim ijtimoiy-siyosiy va vakillik vazifalarini amalga oshiradi.

Insoniyat siyosiy ongining davr bilan hamnafas rivojlanib borishi siyosiy jarayonlar, siyosiy tizim va uning tarkibiy qismlarini takomillashtirishga ham o''z ta'sirini ko'rsatmoqda. "Zamonaviy fuqarolik jamiyatining bardavom faoliyati bir necha, serqirra jamoat tashkilotlari bilan uzviy aloqani talab etadi, ularning eng asosiysi siyosiy partiyalardir". Siyosiy partiyalar jamiyat tizimining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Binobarin jamiyat siyosiy tizimi doimiy harakatdagi ijtimoiy hodisadir. Shu boisdan mashhur ingiliz siyosiy arbobi Genri Sent Jon Bolingbrok siyosiy partiyani demokratik institut sifatida e'tirof etib, "partiya millatning ovozi" ekanini qayt etadi. Siyosiy partiyalar saylovoldi dasturlarida ta''lim tizimiga, yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Quvonarli jihat shundaki, bugungi kunda yoshlarimiz barcha jabhalarida bo'lgani kabi siyosiy partiyalar faoliyatida ham alohida o'ringa ega bo'lib borishmoqda. Har bir siyosiy partiyada yoshlar qanoti faoliyat olib borayotganligi buning yaqqol tasdig'idir.

Siyosiy partiya – fuqarolarning eng faol, mushtarak mafkura asosida bog'langan, davlat hokimiyatini qo'lga kiritish, uni saqlab qolish va amalga oshirishga intiluvchi qismi, ixtiyoriy ittifoqi. Siyosiy partiya – bu jamiyatdagi ma'lum bir guruhlar, toifalar, qatlamlarning qiziqishlarini aks ettiradigan hamda davlat hokimiyatini tashkil etish va davlat ishlarida qatnashish orqali ularni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadigan kishilar birligini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, siyosiy partiyalar mamlakatdagi muayyan aholining yoki guruhlarning manfaatlarini, maqsadlarini va intilishlarini ifodalaydigan hamda qonuniy vositalar yordamida ularni davlat siyosti darajasiga ko'tara oladigan jamiyatdagi yagona kuch hisoblanadi. Aynan mana shu jihat, ya'niy siyosiy hayotdagi bevosita ishtiroki bilan o'z manfaatlarini ifodalashi orqali siyosiy partiyalar boshqa jamoat tashkilotlaridan farqlanadi. Siyosiy partiyalar zamonaviy demokratik jamiyatlar siyosiy tizimining muhim ajralmas qismidir. Davlat va

huquq nazariyasidan bizga ma'lumki, siyosiy tizim – bu xalq irodasiga muvofiq davlatda siyosiy hokimiyatni amalga oshirishga xizmat qiluvchi siyosiy institutlar, siyosiy normalar, prinsplar, jarayonlarning o'zaro aloqadorligi va mushtarak yig'indisi. Ramziy ma'noda aytganda, siyosiy tizim davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi siyosiy muassasalar yoki tashkilotlarning harakatlanish maydonidir, ushbu siyosiy maydonning barqarorligini mustahkamlovchi siyosiy poydevor – siyosiy partiyalardir. Zero, siyosiy partiylar hokimiyat konstitutsiyaviy-huquqiy tuzilishining barcha bo'g'inlariga singib ketgan holda nafaqat uni shakllantirishda, balki faoliyat yuritishida ham hal qiluvchi rol o,,ynaydilar. Jamiyatda turli xil partiyalarning mavjud bo'lishi natijasida siyosiy fikr , qarashlarning xilma-xilligi vujudga keladi. "Plyuralizm, ya"ni fikrlar xilma-xilligi va qarashlarning rang-barangligi ma'rifiy jamiyatga xos bo'lib, muayyan haqiqatni turlicha izohlash, tushunish va talqin etish tamoyiliga asoslanadi". Siyosiy partiyalarning o'ziga xos xususiyatlari qonuniy raqobat olib borilishi sharoitida ijobiy natijalarga olib keladi hamda davlat, jamiyat rivoji uchun o'z hissasini qo'shami. Bugungi kunda, aynan shu sababli, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda mamlakatdagi siyosiy raqobatni rivojlantirish asosiy maqsad, yo,,nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Partiyalararo qonuniy raqobat fuqarolar siyosiy madaniyatidagi halol raqobat tushunchasi bilan uzviy bog'liq.

O'zbekistonda parlament demokratik prinsiplaridan kelib chiqib ko,,p partiyaviylik tizimiga amal qilgan holda ochiq va erkin saylovlar asosida shakllanmoqda va faoliyat olib bormoqda. O'tgan davr mobaynida bu borada zarur tajriba to'plandi, erishilgan yutuq va kamchiliklarni ikki palatali parlament sharoitida yanada chuqurroq tahlil etish imkonini paydo bo'ldi. Zero, partiyalar o'rtasida doimiy kurash – g'oya va dasturlar kurashi parlamentning kundalik faoliyatida asta-sekinlik bilan bo'lsada namoyon bo'lmoqda, parlament faoliyatida har qaysi partiya o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga sobitqadamlik bilan erishishga harakat qilmoqda. Biroq bu yo'lida muayyan murakkabliklar, xato va kamchiliklar ham mavjudligini ta'kidlash lozim. Shuning uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Bir fikrni takror va takror aytishni o'rinli, deb

bilaman: olib borayotgan islohotlarimizning muvaffaqiyati, avvalambor, siyosiy partiyalarning yetuklik darajasiga, ularning jonajon Vatanimiz oldidagi mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga qay darajada tayyor ekaniga bevosita bog’liqdir’, – deb ta’kidlaydi. Davlat va siyosiy partiyalar o’zaro munosabatlarining asosiy yo’nalishlari ular faoliyatini normativ tartibga solish, davlat va jamoatchilik nazorati, davlat va siyosiy partiyalarning masalalarni bahamjihat hal qilish bo’yicha o’zaro hamkorligi, siyosiy partiyalar faoliyatini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash hisoblanadi. Hozirgi kunda respublikamizda Xalq Demokratik partiyasi, “Adolat” sotsialdemokratik partiyasi, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O’zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda O’zbekiston ekologik partiyalari faoliyat yuritib kelmoqdalar. Barcha siyosiy partiyalar o’z faoliyatlarini Konstitutsiya va O’zbekiston Respublikasi Qonunlari asosida amalga oshiradilar. Shu boisdan, siyosiy partiyalar qonun asosida tashkil etilishi va faoliyat olib borishi, bir maqsadli shaxslarni birlashtirishi, muayyan dasturi va yo’nalishiga ega bo’lishi, boshqa jamoat tashkilotlari orasida o’zining rasmiyligi va muhimligi bilan ajralib turishini ta’kidlash lozim. Jamiyat hayotida qonuniylik mezonlari to’liq joriy etib borilishi davlatning faoliyatida o’z aksini topishi va doimo mustahkamlanib borilishini taqozo etadi. Aynan shu maqsadlarga mos holda O’zbekistonda islohotlarning muhim yo’nalishlari etib hokimiyatni bo’linish tamoyilini amalga oshirishni ta’minlash, jamiyat siyosiy tizimida parlamentni rivojlantirish, partiyalarning rolini oshirish kabi masalalar belgilab olingan. Bu yo’lda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” g’oyasi asosida ijobjiy natijalarga erishilmoqda.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, O’zbekistonda siyosiy tizimi zamонавији siyosiy munosabatlar shart-sharoitlari va omillariga moslashish hamda uyg’unlashish sifatlariga ega bo’lib bormoqda. Siyosiy partiyalarning islohatlar jarayonidagi jamiyatni yangilash va modernizasiya qilish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishdagi roli va ahamiyati kuchaytirish, ijro hokimiyati ustidan jamoatchilik, saylab qo’yiladigan hamda vakolatli organlar nazoratini

kuchaytirish, taraqqiy topgan demokratik davlatlar tajribasi asosida yurtimizda haqiqiy ko'ppartiyaviylik muhitini qaror toptirishga qaratilgan hayotiy zarur huquqiy qoidalar o'z aksini topdi. Bularning barchasi siyosiy partiyalarning keng ko'lamma ijtimoiy-siyosiy faoliyat yuritishini ta'minlaydigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilishiga va ularning jamiyatimizdagi o'rni va nufuzi va mavqeini, vakolatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi

## **IV AMALIY MASHHULOT MATERIALAR**

### **1-mavzu. Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linish prinsipi.**

#### **Reja:**

1. O'zbekiston Respublikasida yangi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning konseptual zaminlarining asoslab berilishi.
2. Milliy davlat boshqaruvi tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linish prinsipi
3. Mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar tizimida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huquqiy maqomi va faoliyatini demokratlashtirish, uning mas'uliyati va mustaqilligini kuchaytirish
4. Davlat hokimiyati va boshqaruvini modernizatsiyalash jarayonlari.

#### **Davlat xizmatharini ko'rsatish tizimiga innovatsion yondashuvlar.**

#### **Amaliy mashg'ulotning maqsadi va vazifalari:**

- O'zbekiston Respublikasida yangi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning konseptual zaminlarini tahlil etish;
- Milliy davlat boshqaruvi tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linish prinsipini ochib berish;
- Mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar tizimida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huquqiy maqomi va faoliyatini demokratlashtirish, uning mas'uliyati va mustaqilligini kuchaytirish jarayonlarini o'rganish.
- Davlat hokimiyati va boshqaruvini modernizatsiyalash jarayonlari yoritish Amaliy mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - "Veyen diagrammasi" interfaol usulidan foydalaniladi.

#### **Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:**

1. Mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar tizimida O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi huquqiy maqomi va faoliyatini demokratlashtirish, uning mas'uliyati va mustaqilligini kuchaytirish jarayonlarini tahlil etish;

2. Boshqaruvning totalitar va yangi usullarini qiyosiy o'rghanish.

"Venn diagrammasi" orqali boshqaruvning totalitar va yangi usullarining umumiyligi belgilari qiyosiy tahlil qilinadi. Masalaning o'zaro bog'liqligini xulosalash uchun quyidagi tushunchalar tanlandi:

1)\* totalitar boshqaruv 2)\* demokratik boshqaruv 3)\* despotik boshqaruv



A)\*

B)\*

**Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:**

Muammo mazmuni	Sabab va omillari	Muammoning yechimi	Xulosa

<p><b>1.</b> Milliy davlat boshqaruvi tizimining o'ziga xos xususiyatlari sabab va omillari hamda muammolar yechimi</p> <p><b>2.</b> Qonun chiqaruvchi soha rivojining sabab va omillari hamda muammolar yechimi</p> <p><b>3.</b> Davlat hokimiyati va boshqaruvini modernizatsiyalash jarayonlarining sabab va omillari hamda muammolar</p>		
--	--	--

## **2-mavzu. O'zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish.**

### **Reja:**

1. Fuqarolik jamiyatining shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institutlarning tutgan o'rni.
2. Nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar.
3. Fuqarolarning o'zini -o'zi boshqarish organlarining o'rni.
4. Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirilishi.
5. Mamlakatimizda *demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish*, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, xalq farovonligini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati
6. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi ustuvor vazifalar.

### **Amaliy mashg'ulotning maqsadi va vazifalari**

- Fuqarolik jamiyatining shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institutlarning tutgan o'rnini tahlil etish;

- Nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ochib berish;
- Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi ustuvor vazifalar o‘rganish.

Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “Aqliy hujum” interfaol usulidan foydalaniladi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Jamiyat nima?
2. Fuqarolik jamiyati nima?
3. Nodavlat notijorat tashkilotlarining vazifasi qanday?
4. Fuqarolarning o‘zini -o‘zi boshqarish organlari nima?
5. Fuqarolik jamiyati bu- ...
6. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo‘lidagi harakatlar bu- ...
7. Mahalla bu- ...
8. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bu- ...

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- “Aqliy hujum” metodining asosiy qoidalardan muhim-tezlik bilan masala mohiyatini ochib berishdan iborat.
- Berilgan topshiriqlarni aynan manba bilan mosligi inobatga olinishi lozim.
- Har bir topshiriqni bajarish uchun kam vaqt va sifatli natija muhim hisoblanadi
- Xulosa chiqarish uchun yig‘ilgan ma’lumotlar umumlashtiriladi va tizimga solinadi.

Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “Har kim har kimga o‘rgatadi” interfaol usulidan foydalaniladi. Bunda asosan tayanch tushunchalarga e’tibor qaratiladi.

#### **Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar (qatorlarga beriladigan savollar):**

1. Fuqarolik jamiyatining shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institutlarning tutgan o‘rni?

2. Nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar?
3. Fuqarolarning o‘zini -o‘zi boshqarish organlarining o‘rni?
4. Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirilishi?
5. Mamlakatimizda *demokratik islohotlarni* yanada *chuqurlashtirish*, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, xalq farovonligini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati?
6. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi ustuvor vazifalar?

### **3-mavzu. Inson haq huquqlarini ta'minlash va himoya qilish.**

#### **Reja:**

1. Inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmi.
2. Inson huquqlarini himoya qilishning mintaqaviy mexanizmi
3. Inson huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmi

#### **Amaliy mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari**


- Inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmini** tahlil etish;
- Inson huquqlarini himoya qilishning mintaqaviy mexanizmini** ochib berish;
- Inson huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmini** o‘rganish.

Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - ““Klaster” grafik organayzerini qo‘llagan holda topshiriq beriladi.

“Klaster” texnologiyasi – pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchi-talabalarni biron bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam beradi. O‘quvchi-talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchi-talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish

hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda o‘quvchi-talabalarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Ta’lim oluvchilar “Klaster” grafik organayzeri yordamida topshiriq bo‘yicha fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalaydi:



Bunda ta’lim oluvchilar o‘qituvchi tomonidan belgilangan vaqt mobaynida yuqoridagi “Klaster” grafik organayzerida aks ettirilgan bo‘sh shakllarni to‘ldiradi.

**METODIK KO‘RSATMA:**

“Klaster” grafik organayzeri asosida berilgan topshiriqni tekshirishda ta’lim oluvchilar yozuvlarining orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor berilmasligi lozim.

O‘qituvchi mashg‘ulotda tinglovchilar bilimini sinovdan o‘tkazish uchun mavzuga oid test savollaridan ham foydalanishi mumkin. Agar mashg‘ulotda o‘qituvchi test materiallaridan foydalanmoqchi bo‘lsa, mashg‘ulotdan oldin buni rejalashtirishi va o‘quv savollarini ko‘rib chiqish vaqtini shunga muvofiq qayta taqsimlashi lozim

Test topshiriqlari

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari qaysilar?

- A) yagona partyaning hukmronligi
- V) siyosiy hayot va siyosiy institatlarning, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi
- S) huquqni muhofaza qiladigan organlarning kuchliligi
- D) o‘zini o‘zi boshqarish organlari mavqeining pastligi
- E) barcha javoblar to‘g‘ri

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilarini aniqlang?

- A) huquqning ustuvorligi
- V) hokimiyatli fakat majburlov asosida boshqarilishi
- S) prezident qonun chikaruvchi vakolatga egaligi
- D) jazolarning qattiqligi
- E) to‘g‘ri javob berilmagan

Fuqarolik jamiyati asosini qanday mulk tashkil qiladi?

- A) kollektiv mulk
- V) davlat mulki
- S) munitsipal mulk
- D) xususiy mulk
- E) ommaviy shirkat mulki

Fuqarolik jamiyatining tarkibiy instituti bo‘lgan jamoat birlashlariga qaysilar kiradi?

- A) siyosiy partiylar, ommaviy xarakatlar
- V) kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari
- S) ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari
- D) ko‘ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari
- E) Barcha javoblar to‘g‘ri

O‘zbekiston nechta siyosiy partiya faoliyat yuritmoqda?

- A) 4 ta
- V) 2 ta
- S) 3 ta

D) 5 ta

E) To‘g‘ri javob berilmagan

#### **4-mavzu. Oila instituti va uning davlat tomonidan qo’llab quvvatlanishi.**

##### **Reja:**

- 1.Oila ijtimoiy institut sifatida: turlari, funksiyalari.
2. Oila institutini muhofaza qilishning qonuniy asoslari.
3. Oila huquqining asosiy tamoyillari.
4. “Farovon oila – farovon mahalla – farovon jamiyat” g’oyasi.

##### **Amaliy mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari**

- Oila ijtimoiy institut sifatida: turlari, funksiyalarini yoritish;
  - Oila institutini muhofaza qilishning qonuniy asoslarini tahlil qilish;
  - Oila huquqining asosiy tamoyillarini ochib berish
  - “Farovon oila – farovon mahalla – farovon jamiyat” g’oyasini yoritish.

Mavzuni yoritishda “Kichik guruhlarda ishlash” metodidan foydalaniladi.

Kichik guruhlarda ishlash – ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan ma’ruzadagi ijodiy ish. Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, mashg‘ulotda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.


Bugungi kunda Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari ta’lim sohasida ijtimoiy fanlarni o‘qitish, siyosiy ta’lim-tarbiya, o‘zlashtirilgan huquqiy bilimlar darajasini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyangan holda tashkil qilish, baholash, fanlar bo‘yicha yangi o‘quv dasturlarini yaratish muhim muammolardan biridir.

Shu o‘rinda aytish kerakki, huquqiy ta’lim tizimini ishlab chiqishda uzlucksizlik, yaxlitlik va bog‘liqlikni ta’minlovchi “bosqichli ta’lim” konsepsiyasi tavsiya etildi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.

#### “Kichik guruhlarda ishlash” metodi

Kichik guruhlarda ishlash – ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan ma’ruzadagi ijodiy ish. Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, mashg‘ulotda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

Bugungi kunda Oliy va o‘rtalik maxsus o‘quv yurtlari ta’lim sohasida ijtimoiy fanlarni o‘qitish, siyosiy ta’lim-tarbiya, o‘zlashtirilgan huquqiy bilimlar darajasini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyangan holda tashkil qilish, baholash, fanlar bo‘yicha yangi o‘quv dasturlarini yaratish muhim muammolardan biridir. Shu o‘rinda aytish kerakki, huquqiy ta’lim tizimini ishlab chiqishda uzlucksizlik, yaxlitlik va bog‘liqlikni ta’minlovchi “bosqichli ta’lim” konsepsiyasi tavsiya etildi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



Mazkur qayd etilgan texnologiyalarni seminar mashg'ulotlarni o'tkazishda samarali foydalanish lozim.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi topshiriqlari

1. “Farovon oila – farovon mahalla – farovon jamiyat” g’oyasi.
2. Oila huquqining asosiy tamoyillari.
3. Oila huquqini ta’minlashning konstitutsion-huquqiy asoslari
4. Oila institutini muhofaza qilishning qonuniy asoslarini tahlil qilish
5. Oila ijtimoiy institut sifatida: turlari, funksiyalari.

## V GLOSSARIY

<b>Termin</b>	<b>O'zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>Avtokratiya</b>	Davlat boshlig'i cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan boshqaruv. Ushbu tushuncha hozirgi davr lug'atlarida hokimiyatga da'vogarlik qiluvchi shaxs, guruhning cheklanmagan siyosiy hukmronlikka intilishi sifatida ifodalanadi.	An autocracy is a government in which the head of state has unlimited power. In modern dictionaries, this concept is expressed as a person claiming power, a group's desire for unlimited political dominance.
<b>Avtoritarizm</b>	Davlatni boshqarish usullaridan biri. Yakka shaxsning davlatning o'z ta'siri, obro'si, tashkilotchiligi, shijoati, jamiyatni yaxshi bilimi asosida boshqarishi. Avtoritarizm, odatda, jamiyat o'z taraqqiyoitining murakkab, qaltis va mas'uliyatli davrlarini boshidan kechirayotgan pallalarda saxniga chiqadi. XXasrda avtoritarizm asosan salbiy ma'noda namoyon bo'ldi. Hozirgi darv avtoritarizmiga harbiy-politsiya fashistik tartibotlar "kazarmali kommunizm" shuningdek stalinizm kiradi.	<i>One of the ways of governing the state. The individual is the one who governs the state based on his influence, prestige, organization, enthusiasm, and good knowledge. Authoritarianism usually emerges at a time when society is going through difficult, dangerous and responsible periods of its development. In the twentieth century, authoritarianism has been largely negative. Today's Darwinist authoritarianism includes military-police fascist regimes, "barracks communism," as well as Stalinism.</i>
<b>Agressiya</b>	Bir davlat tomonidan ikkinchi davlatga nisbatan territoriyani qo'lga kiritish, uning mustaqilligini yo'q qilish yoki cheklash, aholisini bo'ysundirish maqsadida har qanday kuch ishlatish, to'g'ridan-to'g'ri	<i>Acquisition of territory by one state in relation to another, the destruction or restriction of its independence, the use of any force to subjugate its</i>

	qurolni agressiya	<i>population, direct aggression</i>
Bozor iqtisodiyoti	Jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui. Bozor iqtisodiyoti mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat a'zolarini ishlab chiqarish va iste'mol orqali doimiy ishtirokchilariga aylantiradi. Shu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilashib borishiga, miqdorning esa ko'payishiga sababchi bo'ladi.	<i>A set of economic relations that accelerates the development of society. The essence of a market economy is that it turns all members of society into regular participants through production and consumption. Therefore, a market economy allows production to improve day by day, product quality to increase, and quantity to increase.</i>
Vijdon erkinligi	Bu fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" – BMT tomonidan 1948 yilda qabul qilingan xalqaro huquqiy xujjatdir. Bu xujjatda insonlarning huquq va erkinliklari, hayot kechirishini ta'minlaydigan huquq va erkinliklari belgilangan.	<i>This is the right of citizens to believe in any religion or not to believe in any religion. The Universal Declaration of Human Rights is an international legal instrument adopted by the United Nations in 1948. This document defines the rights and freedoms of the people, the rights and freedoms that ensure their livelihood</i>
Global muammolar	Ushbu muammolar o'zining daxshatli oqibatlari, jinoyatga keltiradigan zarari bilan boshqa har qanday muammolardan qisman farq qiladi. Bumuammolarni jamiyat hayotida ro'y beradigan birdan – bir muammoga qiyoslab bo'lmaydi. Ular o'zining ko'lami va miqyoslariga ko'ra dunyoning juda katta qismiga yoyilgan bo'lib, ko'pchilik	<i>These problems are somewhat different from any other problem in that they have dire consequences and damage to crime. These problems cannot be compared to a single problem that occurs in the life of a society. They are spread over a large part of</i>

	mamlakatlar va xalqlar hayotiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.	<i>the world due to their scale and scale, and have a strong negative impact on the lives of many countries and peoples. 'shows</i>
<b>Fedarativ (murakkab)</b>	Davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) shtatlar, hududiy yer birliklari kabi qisimlardan tuzilgan.	<i>States are made up of parts of the state, such as autonomous states, territorial units of state.</i>
<b>Demokratiya</b>	Demokrratiyaning muhim xususiyati shundaki unda xalq hokimiyati ya'ni ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi qoidasi rasmiy ravishda e'lon qilinadi hamda fuqarolarning erkinligi va teng huquqliligi e'tirof etiladi. Bu shartlar jamiyat hamda uning a'zolari hayotining asosiy qonuni— ushbu davlatning konstitutsiyasida aks ettiriladi.	<i>An important feature of democracy is that it officially declares the rule of the people, that is, the subordination of the minority to the majority, and recognizes the freedom and equality of citizens. These conditions are reflected in the basic law of society and the life of its members - the constitution of the state.</i>
<b>Integratsiya</b>	Milliy iqtisodiyotdlarning sifat jihatdan yangi sharoitlarga ega bo'lishi va mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida iqtisodiy ravishda birlashishi, bir-biriga o'zaro ta'sir etishi jarayonining kuchayishi. Iqtisodiy integratsiya hamkorlik, iqtisodiy siyosatda ustivor yo'nalish deb ishlab chiqarish rivojlanishni belgilangan mamlakatlar o'rtasida, asosan ishlab chiqarish alohida yuz beradi va bu jarayonni amalga oshirish maqsadida mamlakatlar qator chora tadbirlarni qo'llaydilar integratsiya jarayoni rivojlanishi darajasiga	<i>The process of economic integration and integration of national economies in order to have qualitatively new conditions and expand the country's development potential. Economic integration cooperation is a priority in economic policy between the countries of production development, mainly production occurs separately, and in order to implement this process, countries take a number of measures depending on the level of development of the</i>

	bog‘liq hamda besh pog‘onaga ajratiladi.	<i>integration process and five gardens allocated to the mother.</i>
<b>Impichment</b>	Davlat jinoyatchilarini mansabdor shaxslarni hattoki davlat boshlig‘i- Prezidentini konstitutsiyasida ko‘rsatilgan moddalarni buzganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish qonun yo‘li bilan mustahkamlangan. Ma’suliyat amalga oshirish qiyin qonunchilik palatasi, ushbu masalani ko‘rib chiqish esa yuqori palataga yuklatilgan.	Prosecution of state criminals and officials, even the head of state, for violating the provisions of the constitution is enshrined in law. The legislature is difficult to account for, and the upper house is left to decide.
<b>Inaguratsiya</b>	Davlat boshlig‘i lavozimiga kirishish oldidan o‘tkaziladigan tantanali marosim. Yangi Prezident va vitse Prezident hokimiyatini tantanali qabul qilish marosimi. Shuningdek haykallarni ko‘rgazmalari ochilishida ham inagurayiyani ifodalaydi.	<i>Ceremony before the inauguration of the President. Ceremony of inauguration of the new President and Vice President. It also symbolizes inauguration at the opening of sculpture exhibitions.</i>
<b>Korrupsiya</b>	Korrupsiya – (lotincha “corruptio”- poraga sotish, aynish, tanazzul) – mansabdor shaxsning boyish maqsadida o‘z mansabi bilan bog‘liq huquqlarni suiste’mol qilishdan iborat jinoyat. Korrupsiya eng qadimiy jamiyatlardan biri: Qayerda davlat bo‘lsa, davlat apparatining turli tarmoqlarida, pastdan yuqorigacha, korrupsiya butun jahonga yoyilgan jinoyatlardan biridir.	<i>A crime of abuse of office rights by an official for the purpose of enrichment. Corruption is one of the oldest societies: Wherever there is a state, corruption is one of the most widespread crimes in various sectors of the state apparatus, from the bottom up.</i>
<b>Lobbizm</b>	Lobbizm – Qonuniyat organida faoliyat ko‘rsatuvchi yirik monopoliyalar agentligi yoki tashkiliy guruh bo‘lib ular manfatlarni ifoda etgan qonunlarni,	<i>Lobbying - a large monopoly agency or organizational group operating in the legislature, which does not force</i>

	<p>zakazlarini, yordamga beriladigan mablag‘ni (subsidiyani) olish yo‘lida qonun chiqaruvchilarni majburlash (kerak bo‘lsa sotib olishi) yo‘lini tutuvchi tushuncha.</p>	<p><i>lawmakers to buy (if necessary) laws, orders, aid (subsidies) that represent their interests. the concept that holds the line.</i></p>
<b>Mentalitet</b>	<p>Mentalitet – (lotincha “mens” – aql, idrok) – jamiyat, millat, birlik yoki alohida shaxsning alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muhim ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati, jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti uning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusmlari, urf-odatlari, diniy e’tiqod va irimlarini ham qamrab oladi.</p>	<p><i>M mentality - (Latin "mens" - mind, perception) - the level of thinking of a society, nation, unit or individual, the spiritual potential of the individual, their ability to analyze the laws of life, mental ability formed in important social conditions, mental strength , the mentality of a society, nation, or individual also includes its specific traditions, customs, traditions, religious beliefs, and superstitions.</i></p>

## **VI. FOYDANILADIGAN ADABIYOTLAR.**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /SH.M. Mirziyoyev. - Toshkent: —O‘zbekiston, 2016. -56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. - Toshkent: —O‘zbekiston, 2017.-104 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. Toshkent: —O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: —O‘zbekiston, 2017.-491 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017-2021-yillarda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. 2017-yil 7-fevral.
6. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar,Xalq so‘zi,7521 son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assableyasining 75-sessiyasidagi nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 24-sentabr.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Шанхай ҳамкорлик ташкилоти йиғилишидаги нутқи. Халқ сўзи, 2020 йил , 10 ноябр.

9. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.
10. Ўзбекистон Республикасининг Ижтимоий шериклик тўғрисидаги Қонуни, 2014 йил 28 декабрь.
11. Ўзбекистон Республикасининг Электрон ҳукумат тўғрисидаги Қонуни, 2015 йил 9 декабрь.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисидаги Фармони //Халқ сўзи, 2017, 8 февраль.
13. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги Коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги Қонуни / Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, №1. 2017.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 февралдаги Маҳалла институтини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Фармони /Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, №6. 2017.
15. Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. –Т.: Шарқ, 2003.
16. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. – Т.: Ўзбекистон, 2010.
17. Жалилов А бошқалар. Фуқаролик жамияти асослари. – Т.: Бактриа пресс, 2015.
18. Фуқаролик жамияти. Дарслик лойиҳаси– Т.: 2016. Ziyonet.uz. Муаллифлар жамоаси.
19. Ўтамуродов А. ва бошқалар. Фуқаролик жамияти фанидан тушунча ва атамалар луғати. Лотин ёзувида. Т.: Турон-замин-зиё. 2017. 23 б.т.
20. Авесто. Тарихий –адабий ёдгорлик. – Т.: Шарқ, 2001.
21. Аристотель. Политика. – М.: АСТ, 2006.
22. Афлотун. Қонуллар. Урфон Отажон таржимаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. - 458 бет.
23. Абдуазимов О. Фуқаролик жамияти ва оммавий ахборот воситалари. – Т.: Академия, 2008.

24. Гуломов М. Маҳалла – фуқаролик жамиятининг асоси. – Т.: Адолат, 2003.
25. Берк Э. Правление, политика и общество / пер. с англ. – Канон-Пресс-Центр, 2001.
26. Беруний Абу Райхон. 100 ҳикмат: ибратли сўзлар. – Т.: Фан, 1993.
27. Бобур. Бобурнома. – Т.: Юлдузча. 1989.
28. Гегель Г.В.Ф. Философия права / Пер. Б.Г. Столпнера, М.И. Левиной; Сост. Д.А. Керимов, В.С. Нерсесянц. – М.: Мысль, 1990.
29. Гоббс Т. Левиафан или материя, форма и власть государства церковного и гражданского. – М.: Соцэскиз «Образцовая», 1936.
30. Жалилов Ш. Фуқаролик жамиятининг пойдевори. – Т.: Ўзбекистон, 2003.
31. Ибн Сина. Избранные философские произведения / Отв. ред. Асимов М.С. – М.: Наука, 1980.

#### **ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI**

1. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
2. [www.aci.uz](http://www.aci.uz)
3. [www.ictcouncil.gov.uz](http://www.ictcouncil.gov.uz)
4. [www.lib.bimm.uz](http://www.lib.bimm.uz)
5. [www.Ziyonet.Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
6. [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)
7. [www.acs.org](http://www.acs.org)
8. [www.nature.com](http://www.nature.com)
9. <http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html>.